

Zargarlik buyumlarining etnomadaniy xususiyatlari

Erejepova Aysuliw Asenbaevna

NDPI “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog ‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” I-bosqich doktoranti

Odamzotning yaralishi va undan so‘ng yashashda davom etib o‘zi ham bir narsani yaratishi haqida fikr yuritsak, hayotni majoziy ma’noda qo‘ldan-qo‘lga, uni yanada boyitib, to‘ldirib berishi tushuniladi. Madaniyat ham xuddi shu kabi insonlar tomonidan yaratilib, nasldan-naslga o‘tkazib beriladigan bir tushunchadir. Madaniyat har doim o‘z ta’sirini o‘tkazadi va bu ta’sir insonda ijobiy o‘zgarishlarni olib keladi.

Inson va madaniyat aloqalarini madaniyatshunos olim Q.Usmonov quyidagicha izohlaydi: “...insonning tabiat hukmronligidan ajralib chiqishi, eng avvalo madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan sodir bo‘ladi. Aynan madaniyat orqali har bir shaxs jamiyatda uzoq yillar davomida to‘plagan tajribalarni, an’ana va urf-odatlarni, turmush tarzini o‘zlashtiradi, imkon qadar boyitadi va nihoyat ular kelajak avlodlarga yetkaziladi” (3.10)

O‘zbek xalq amaliy san’ati turlari ichida zeb-ziynat san’ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi. Darvoqe, taqinchoqlar taqish ham o‘ziga xos san’at, madaniyat sanalgan. Zargarlik buyumlari har bir xalqning milliy-badiiy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois ham zeb-ziynat buyumlarining ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni ham beqiyosdir.

Ko‘pchilikka ma’lumki, taqinchoqlar inson salomatligi uchun foydali. Chunki ular bizning salomatligimizni bir me’yorda ushlab turadi. Taqinchoqlar qimmatbaho ashyolardan tayyorlanganligi bois ham shunday vazifalarni bajarib kelgan, shuningdek, ayollarning bezak buyumlari sanaladi. Ular inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga yomon ko‘zdan, nazar tushishidan asraydi. Bundan tashqari ayollarning go‘zalligiga qo‘shimcha zeb berish vazifasini ham o‘taydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumları nihoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo‘lib qolmay, balki sog‘liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta’sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagı tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko‘z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og‘izdagi qo‘lansa hidlarni yo‘qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollah, bavosil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko‘z kasalligiga shifobaxsh, ta’sir etgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan. Sadaf

Sharqda ham, Yevropada ham yuqori baholangan. Undan to‘g‘nag‘ich, baldoq, marjonlar, ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshig‘qar mahbubasiga sovg‘a qilgan. U taqqan kishini ajin hamda seckillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruhiyatini ko‘targan.

O‘zbek zargarligi ham juda qadimiy tarixga ega. Unga ibridoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma’lumki, zargarlik san’ati juda qadimiy san’at bo‘lgan. Eramizgacha bo‘lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayrитом, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolgayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san’ati rivojlanganligini ko‘rish mumkin. O‘sha vaqtagi ijtimoiy-siyosiy, ma’daniy-iqtisodiy, maishiy xususiyatlarini aks ettiradi. Chunki ota-bobolarimiz o‘sha davrlardayoq atrof-borliqdagi tot va chig‘anoklardan har xil taqinchoqlar tayyorlashni o‘rganishgan. Asta-sekin zargarlik buyumlarining xil va turlari ko‘paya borgan. Ularni yasashda tilla, kumush, mis, kez, olmos, zumrad kabi madanlardan foydalaniladigan bo‘lishgan.

O‘zbekiston Respublikasining ko‘pgina muzeylarida saqlanayotgan topilmalar respublika hududida (Yunon Baqtriya podsholigi, mil. av. III—II asr; Qadimgi Xorazm, asosan, mil. av. I ming yillik o‘rtalaridan mil. VIII asrgacha) zargarlik rivoj topganini ko‘rsatadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Shahrisabz va boshqa shaharlarda zargarlik rivojlangan. XIX asr oxiri XX asr boshida o‘ziga xos ishlanishi, shakli, bezaklari, xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan xilma-xil zargarlik buyumlari keng tarqalgan, ziynat buyumlari to‘plamlari vujudga kelgan. Asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan zargarlik san’ati XX asr boshlarida inqirozga yuz tutgan, xalq ustalarining soni qisqara boshlagan. O‘sha paytlarda ustalarga qimmatbaho xom ashylardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmagan.

Zargarlik ustaxonalarida ijod qilgan ustazargarlar ish jarayonida asta-sekinlik bilan mavjud an’analardan yiroqlasha borganlar. Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakli-shamoyili o‘zgarib «eklektik» manzarani yuzaga keltirgan va ba’zi an’analarni butkul yo‘qolishiga olib kelgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng zargarlik san’ati jonlandi. Qimmatbaho metall materiallardan foydalanishga imkon yaratildi. Ijod qilayotgan ustalar, asosan, 2 yo‘nalishda: mahalliy zargarlar (unutilib borayotgan an’analarni qayta tiklash) va an’anaviy zamonaviy uslubda zargarlik buyumlari yaratish ustida ijod qilmoqdalar. An’anaviy zargarlik buyumlari — tumorlar, isirg‘alardan «uch ko‘zacha», «oy boldoq», «yer bidor», «qashqarboldoq» va boshqalar yaratildi. Ustaxonalar kengaytirildi. Hozirgi vaqtda xalq ommasining madaniy maishiy ahvoli, farovonligi, zargarlik buyumlariga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortdi.

Mamlakatimizning Buxoro, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi zargarlik sanoatlarida zargarlik buyumlari (uzuk, to‘g‘nag‘ich, tilla qosh, zirak singari) ishlab chiqarilmoqda. Ayniqsa, Toshkent zargarlik sanoati ishlari diqqatga sazovordir. U yerda 100 dan ortiq rang-barang ziynat va sovg‘abop buyumlar tayyorlab chiqarilmoqda. Bu buyumlarni yurtimizning turli chekkalarida ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vikipediya. Kamen Xlorit: svoystva, znachenie i vliyanie na cheloveka.
2. Sulaymanova M.I. O‘zbek va qirg‘izlarning etnomadaniy hayotidagi taqinchoq taqishga bog‘liq mushtarak odatlar. Tilshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlar: muammo va echimlar. Andijon-2020
3. Usmonov Q va b. Madaniyatshunoslik. –Toshkent, 2008. – B.282
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent, 2004/49-bet
5. Yodgorova, N. T., Ibodov, B. A., Tashpolatov, A. K., Uzokov, J. E., & Abdunabiyev, R. N. (2023). Role of amniocentesis in the prevention of chromosomal gene diseases.
6. Abdullayeva, G. (2022). POETICS OF EDUCATIONAL POEMS IN CHILDREN'S LITERATURE. Thematics Journal of Education, 7(2).
7. Aslanov, A. S., Subhonova, A. A., Avilova, K. H., & Saydullayeva, M. A. (2021). Impacts Of Language Learning On The Development Of Cognition. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(09), 56-59.